



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida inklyuziv ta'limni
takomillashtirish to'g'risida**

Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ta'lim olish huquqini kafolatlash va ta'minlash hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida **buyuraman**:

1. "Zamin" Xalqaro jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda "Digital Generation Uzbekistan" nodavlat notijorat tashkilotining "Inklyuziv ta'lim" qo'shma loyihasi doirasida 2023-yilda belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" (keyingi o'rnlarda – "Yo'l xaritasi") ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

"Inklyuziv ta'lim" qo'shma loyihasi doirasida 2023-yilda belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish bo'yicha ishchi guruhi (keyingi o'rnlarda – Ishchi guruhi) tarkibi **1- ilovaga** muvofiq;

2023-2024-o'quv yilidan tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta'lim joriy etiladigan umumta'lim maktablari ro'yxati **2- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) **bir hafta muddatda** xorijiy hamkorlar tomonidan ko'rsatiladigan ish va xizmatlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqsin hamda ishchi guruhiga taqdim etsin.

5. Ishchi guruhga (D.Kenjayev):

"Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minasin hamda vazifalarning bajarilishi ustidan doimiy nazorat olib borish;

"Inklyuziv ta'lim" qo'shma loyihasi doirasida psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazish orqali aniqlangan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limda o'qish imkoniyati mavjud bo'lgan o'quvchilar uchun inklyuziv muhitni yaratish maqsadida xorijdan jalb etiladigan xorijiy tashkilot hamda ushbu yo'nalishdagi ekspert va mutaxassislar (keyingi o'rnlarda – xorijiy hamkorlar) faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

umumta'lim mакtablarida inklyuziv ta'lismuhitini yaratish maqsadida xorijiy hamkorlarning ijobiy tajribalarini amaliyatga joriy etish choralarini ko'rsin;

"Inklyuziv ta'lism" qo'shma loyihasini amalgalash oshirish jarayonida vujudga keladigan masala va muammolarni o'z vaqtida bartaraf etib borish;

xorijiy hamkorlar tomonidan ko'rsatiladigan ish va xizmatlarni tashkil etish yuzasidan o'rganish yo'naliishlari hamda qo'yiladigan vazifalarni belgilash;

xalqaro standartlarga muvofiq innovatsion yondashuvlar asosida bolalarni o'qitish va tarbiyalash uslublarini takomillashtirish vazifalari yuklatilsan.

6. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Kirgizbayev), O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova):

2023-yil avgustga qadar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lism yo'naliishiga qaratilgan o'quv va amaliy dasturlar ishlab chiqsin hamda ilmiy-metodik kengash tasdig'idan o'tkazsin;

2023-yil 15-oktabrga qadar o'quv va amaliy dasturlarni amaliyotda tajriba sinovidan o'tkazsin;

2023-yilning avgust-oktabr oylarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lism yo'naliishida o'quv-seminarlar va treninglar o'tkazish hamda respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil etsin.

7. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'limi (S.Xoliquov), Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov, N.Pardayev, B.Ayubov)larga:

Toshkent shahrida tajriba sinov tariqasida yangidan joriy etilayotgan 4 ta umumta'lim mакtablarida xalqaro talab va standartlar asosida imkoniyati cheklangan o'quvchilarga yetarli shart-sharoitlar yaratish ishlarini muvofiqlashtirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda Ishchi guruhi tomonidan tanlab olingan inklyuziv ta'lim joriy etiladigan umumta'lim mакtablarida ushbu tajriba asosida joriy etish masalasini o'rganib chiqib, vazirlik rahbariyatiga taklif kiritsin.

8. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova), Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (D.Ermatov), Axborot xizmati (D.Sobirova) inklyuziv yo'naliishida targ'ibot ishlari yuzasidan doimiy ravishda tadbirlar tashkillashtirsin.

9. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) xorijiy hamkorlar tomonidan mahalliy pedagoglarning malakasini oshirish dasturini o'zlashtirish darajasini baholash ishlarini tashkillashtirsin.

10. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning barcha tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar va muassasalar hamda hududiy boshqarma va bo'limlarga yetkazilishini ta'minlasin.

11. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinnbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin

Vazir

X. Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil "8"-may
121-son



*Денескундай
затифе
Даекхан*

O'zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
 2023-yil 8 - may
21-sonli buyrug'iiga
 1-ILOVA

**"Inklyuziv ta'lism" qo'shma loyihasi doirasida 2023-yilda belgilangan vazifalar ijrosi
 bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish
 bo'yicha ishchi guruhi**

TARKIBI

| T/r | F.I.Sh | Lavozimi |
|-----|-------------------------------------|---|
| 1. | KENJAYEV Dilshod Mutalibovich | - Vazir o'rribosari, ishchi guruh raisi |
| 2. | KOMILOV Temur Kalandarovich | - Vazir o'rribosari, ishchi guruh hamraisi |
| 3. | XOLIQOV Suxrob Tursunaliyevich | - Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta'limga rivojlantirish bo'limi boshlig'i, ishchi guruh raisi o'rribosari |
| 4. | SIRADJEV Ilxom Tohiro维奇 | - Moliya-iqtisod departamenti direktori, a'zo |
| 5. | MURODOV Erkin Ergashevich | - Umumiy o'rta ta'limga tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 6. | OQILOV Qodir Rajjaboy o'g'li | - Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 7. | ASROROV Xurshid Qobilovich | - Yuridik bo'lim boshlig'i, a'zo |
| 8. | MANNONOV Jasur Ibodulla o'g'li | - Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 9. | NORBOYEVA Dilshoda Abdunasimovna | - O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlash bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 10. | AXUNOVA Laylo Baxadirovna | - Ixtisoslashtirilgan ta'limga muassasalari agentligi baholash va monitoring qilish bo'limi yetakchi mutaxassis, a'zo |
| 11. | TOSHGORZAYEVA Gulfira Erkin qizi | - Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta'limga rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassis, a'zo |
| 12. | GAYNUTDINOVA Liliya Rifkatovna | - O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, a'zo |
| 13. | SADRIDDINOVA Dilfuza Ruzikulovna | - Strategik rivojlantirish va xalqaro reytinglar boshqarmasi boshlig'i o'rribosari, kotib |

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
 Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
 2023-yil 8 - moy
121-sonli buyrug‘iga
 2-ILOVA

**2023-2024-o‘quv yilida inkluziv ta’lim joriy etilishi belgilangan
 umumta’lim maktablari
 RO‘YXATI**

| T/r | Hudud nomi | Tuman (shahar)nomi | Umumta’lim muassasasi raqami |
|-----|--------------------------------------|--------------------|---------------------------------|
| 1. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | Qonliko‘l tumani | 1-maktab |
| 2. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | Taxiatosh tumani | 4-maktab |
| 3. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | Taxtako‘pir tumani | 2-maktab |
| 4. | Andijon viloyati | Andijon shahari | 17-maktab |
| 5. | Andijon viloyati | Xonobod shahari | 4-maktab |
| 6. | Andijon viloyati | Jalaquduq tumani | 5-maktab |
| 7. | Andijon viloyati | Shahrixon tumani | 5-maktab |
| 8. | Buxoro viloyati | Buxoro shahari | 34-maktab |
| 9. | Buxoro viloyati | Romitan tumani | 1-maktab |
| 10. | Jizzax viloyati | Jizzax shahri | 3-maktab |
| 11. | Jizzax viloyati | Zomin tumani | 60-maktab |
| 12. | Jizzax viloyati | Sh.Rashidov tumani | 36-maktab |
| 13. | Qashqdaryo viloyati | G‘uzor tumani | 34-maktab |
| 14. | Qashqdaryo viloyati | Qarshi shahri | 4-maktab |
| 15. | Qashqdaryo viloyati | Shahrisabz tumani | 20-maktab |
| 16. | Navoiy viloyati | Karmana tumani | 2-maktab |
| 17. | Navoiy viloyati | Karmana tumani | 6-maktab |
| 18. | Navoiy viloyati | Qiziltepa tumani | 85-maktab |
| 19. | Namangan viloyati | Kosonsoy tumani | 49-maktab |
| 20. | Namangan viloyati | Uychi tumanidagi | 35-maktab |
| 21. | Namangan viloyati | Uchqo‘rg‘on tumani | 1-maktab |
| 22. | Samarqand viloyati | Jomboy tumani | 23-maktab |
| 23. | Samarqand viloyati | Ishtixon tumani | 8-maktab |
| 24. | Samarqand viloyati | Samarqand shahri | 81-maktab |
| 25. | Sirdaryo viloyati | Mirzaobod tumani | 7-maktab |
| 26. | Sirdaryo viloyati | Sayxunobod tumani | 35-maktab |
| 27. | Sirdaryo viloyati | Xovos tumani | 14-maktab |
| 28. | Surxondaryo viloyati | Denov tumani | 82-maktab |

| | | | |
|-----|--------------------------|-------------------|------------|
| 29. | Surxondaryo viloyati | Termiz shahari | 2-maktab |
| 30. | Surxondaryo viloyati | Termiz shahar | 26-maktab |
| 31. | Toshkent viloyati | Angren shahari | 18-maktab |
| 32. | Toshkent viloyati | Oqqo‘rg‘on tumani | 18-maktab |
| 33. | Toshkent viloyati | Chinoz tumani | 13-maktab |
| 34. | Farg‘ona viloyati | Qo‘qon shahari | 23-maktab |
| 35. | Farg‘ona viloyati | Farg‘ona tumani | 3-maktab |
| 36. | Farg‘ona viloyati | Farg‘ona shahri | 5-maktab |
| 37. | Xorazm viloyati | Urganch shahari | 16-maktab |
| 38. | Xorazm viloyati | Xiva shahari | 5-maktab |
| 39. | Xorazm viloyati | Hazorasp tumani | 14-maktab |
| 40. | Toshkent shahar | Olmazor tumani | 134-maktab |
| 41. | Toshkent shahar | Olmazor tumani | 298-maktab |
| 42. | Toshkent shahar | Yunusobod tumani | 5-maktab |